

ERNAZAROV Odiljon,
*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
 Dinshunoslik va jahon dinlarini
 qiyosiy o'rganish UNESCO
 kafedrası mudiri, t.f. PhD, dotsent*

MUSULMON DUNYOSIDA MAHALLA TIZIMI – IJTIMOİY MUNOSABATLAR VA DINLARARO MULOQOT PLATFORMASI

СИСТЕМА МАХАЛЛИ В МУСУЛЬМАНСКОМ МИРЕ КАК ПЛАТФОРМА СОЦИАЛЬНЫХ ОТНОШЕНИЙ И МЕЖКОНФЕССИОНАЛЬНОГО ДИАЛОГА

THE MAHALLA SYSTEM IN THE MUSLIM WORLD AS A PLATFORM FOR SOCIAL RELATIONS AND INTERRELIGIOUS DIALOGUE

Annotatsiya. Mazkur maqolada musulmon dunyosida mahalla tizimining shakllanish tarixi hamda uning ijtimoiy va dinlararo munosabatlardagi o'rni tahlil qilinadi. Mahalla nafaqat hududiy birlik, balki ijtimoiy nazorat, o'zaro yordam, diniy hayot va iqtisodiy hamkorlikni ta'minlovchi muhim institut sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda Makka va Madinadagi dastlabki joylashuvlardan boshlab, Umaviylar, Abbosiylar va Usmonlilar davrida mahalla tizimining rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Shuningdek, Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq va Andalusiya shaharlari misolida turli din vakillarining bir hududda yoki qo'shni mahallalarda yashash tajribasi tahlil qilinadi. Maqolada mahalla tizimi diniy va etnik farqlarni saqlagan holda ijtimoiy integratsiya, qo'shnichilik va hamkorlikni ta'minlaganligi asoslab beriladi.

Tayanch so'zlar: "Hitat", "mahalla", "Qurayshu-l-bitoh", "Qurayshu-z-zavohir", «Shi'bu Abu Tolib», Umaviylar, Abbosiylar, Mamluklar, Usmonlilar, Markaziy Osiyodagi xonliklar, "rais", "shayx", «oqsoqol», "ahdas", "zuar", «aralash mahalla».

Аннотация. В данной статье анализируется история формирования системы махалли в мусульманском мире, а также её роль в социальных и межконфессиональных отношениях. Махалля рассматривается как важный социальный институт, обеспечивающий не только

территориальную организацию, но и социальный контроль, взаимопомощь, религиозную жизнь и экономическое взаимодействие. В исследовании освещаются этапы развития махалли, начиная с первых поселений в Мекке и Медине, а также в периоды Омейядов, Аббасидов и Османской империи. Особое внимание уделяется совместному проживанию представителей различных религий в городах Ближнего Востока, Центральной Азии и Андалусии. Делается вывод о том, что махалля способствовала социальной интеграции и межрелигиозному взаимодействию при сохранении культурных различий.

Ключевые слова: Хитат (территориальные участки, кварталы), Махалля, Курейш аль-Битах, Курейш аз-Завахир. Ши'б Абу Талиб, Омейяды, Аббасиды, Мамлюки, Османы (Османская империя), Ханства Центральной Азии, Раис (глава общины), Шейх, Аксакал, Ахдас (городская милиция), Зу'ар (городские молодёжные группы), Смешанная махалля.

Abstract. This article examines the historical formation of the mahalla system in the Muslim world and its role in social and interreligious relations. The mahalla is analyzed as an important social institution that ensures not only territorial organization but also social control, mutual assistance, religious life, and economic cooperation. The study traces the development of the mahalla from early settlements in Mecca and Medina through the Umayyad, Abbasid, and Ottoman periods. Particular attention is given to the coexistence of different religious communities in regions such as the Middle East, Central Asia, and Andalusia. The article concludes that the mahalla system played a significant role in fostering social integration and interreligious interaction while preserving ethnic and religious diversity.

Keywords: Hitat (allocated quarters/plots), mahalla (neighborhood community), Quraysh al-Bitah, Quraysh al-Zawahir, Shi'b Abu Talib, Umayyads, Abbasids, Mamluks, Ottomans (Ottoman Empire), Central Asian khanates, ra'is (community leader), sheikh, aksakal (elder), ahdas (urban militia), zu'ar (urban youth groups), "mixed quarter".

KIRISH

Musulmon jamiyatlar tarixida mahalla hududiy birlik bo'lish bilan bir qatorda, ijtimoiy nazorat, o'zaro yordam, diniy-amaliy hayot, iqtisodiy hamkorlik va mahalliy o'zini o'zi boshqarishning muhim shakli sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, "mahalla" tushunchasi barcha musulmon hududlarida bir xil shaklda

qo'llanilmagan: Usmonli turk shaharlarida u ko'pincha "mahalle", Arab dunyosida "hitat", Markaziy Osiyoda esa "mahalla" nomi bilan qo'llanib kelingan. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, musulmon shahri tarixini faqat "bir din vakillaridan iborat dahalar" modeli bilan tushuntirish noto'g'ri; amalda ko'plab shaharlarda musulmonlar, xristianlar va yahudiylar o'rtasida bir vaqtning o'zida ham yaqin qo'shnichilik, ham muayyan darajadagi birgalikda yashash kuzatilgan.

Lug'atda "bir joyga tushmoq, qo'nmoq, joylashmoq" ma'nolarini anglatuvchi "hall" (halal va hulul) o'zagidan yasalgan makon nomi bo'lgan "mahalla" atamasi "doimiy yoki vaqtinchalik istiqomat qilish uchun barpo etilgan kichik aholi manzillari"ni ifodalaydi. "Mahalla" so'zi kichik o'zgarishlar bilan boshqa islom mamlakatlarida ham shu ma'noda qo'llanilgan.

ASOSIY QISM

Islom manbalarida qayd etilishicha, Makkadagi dastlabki turar joylar Muhammad Payg'ambar (s.a.v.)ning bobolaridan Qusay ibn Kilob tomonidan Ka'ba atrofida barpo etilgan va shaharda "Qurayshu-l-bitoh" hamda "Qurayshu-z-zavohir" deb atalgan ikki mahalla tashkil topgan. Islomning ilk yillarida Makkada o'n ikkiga yaqin mahalla mavjud bo'lgani, musulmonlar Abu Tolib mahallasida (Shi'bu Abu Tolib) o'zlariga nisbatan qo'llangan qamal sababli uzoq vaqt qiyinchilikda yashaganlari, Rasululloh Madinaga hijrat qilgan paytda arab va yahudiy qabilalari bir-biridan ancha uzoq mahallalarda istiqomat qilganlari ma'lumdir.

Masjid an-Nabaviy qurilganidan keyin ham shu amaliyot davom etgan bo'lsa-da, shahardagi joylashuv qaytadan tartibga solingan. Joylashuvning shahar ichida haddan tashqari zichlashib ketishini oldini olish, shaharning xavfsizligini ta'minlash va shahardan uzoqda yashovchilarning markaz bilan aloqasini uzluksiz ta'minlash uchun chekka mahallalar ham shu reja tarkibiga kiritilgan. O'rta asrlarda kuchaygan doirasimon shahar rejasi bilan uyg'un ravishda, qadim zamonlardan ma'lum bo'lgan tashqi mahallalarning shaharning bir qismi sifatida loyihalashtirilishi natijasida Madinadagi mahallalar soni ortgan; shu bilan birga ayrim eski mahallalar ham yo'qolib ketgan. Chekka mahallalarni shaharning bir bo'lagi deb bilish tushunchasi keyingi davrlarda ham davom etdi, hatto ba'zan bu mahallalarda yashovchilarga,

avvalo soliq masalasida, ayrim imtiyozlar ham berilgan [9: 70].

Ilk harbiy harakatlardan keyin zabt etilgan hududlarda barpo etilgan yangi shaharlarda bir qabila yoki qabilalar guruhiga ajratilgan mahallalar uchun "hitta" (ko'plik shakli "hitat") atamasi ishlatila boshlangan. Dastlab harbiy maqsadlarda qurilib, vaqt o'tishi bilan diniy, siyosiy va madaniy markazlarga aylangan Basra, Kufa, Fustot va Qayravon kabi shaharlarda mahallalar ushbu shaharlarning umumiy unsurlari bo'lgan masjid, dorul-imora (shifoxona) va bozor o'qi atrofida qabila asosida bir-biridan ajratilgan birliklar holida tashkil etilgan. Masalan, Kufaga joylashtirilgan har bir qabilaning alohida mahallasi bor edi. Ayniqsa, Umaviylar davridan boshlab masjid va qabriston ham mahallaning boshqa tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'la boshlagan.

Umaviylarning Iroqdagi noibi Hajjoj ibn Yusuf (661-714 yy.) Vosit shahrini Dajla daryosining ikki qirg'og'i bo'yida barpo etib, uni to'rt mahallaga bo'lgan va shaharning g'arbiy qirg'og'idagi mahallalarga arab bo'lmaganlarning joylashishiga ruxsat bermagan. Sharqiy qirg'oqdagi mahallalarga esa Buxoro va Movarounnahr tomondan keltirilgan aholi joylashtirilgan. Shunga o'xshash amaliyot Abbosiylar davrida Samarrada ham amalga oshirilgan, turklar bilan farg'onaliklar bir-biridan alohida va uzoq mahallalarga joylashtirilgan.

Ba'zi shaharlarda qabilalarga ajratilgan hududiy qismlar orasida vaqt o'tishi bilan ko'chalar shakllangan; ular ham o'tish yo'lagi, ham mahallalarni bir-biridan ajratib turuvchi vosita vazifasini bajargan. Ilk tashkil etilgan musulmon shaharlarida qabilalarning shaharning turli joylariga joylashtirilishi mahallaga jismoniy va ijtimoiy birlik xususiyatini bergan. Ibn Kasir bu davrda mahallaning u yerda yashovchi odamlarda muayyan joyga mansublik hissini uyg'otganini, ba'zan esa odamlar mahalla nomi bilan nisbat berilganini ta'kidlaydi [7 : 338].

Qabila asosida qurilgan Basra vaqt o'tishi bilan kichraygan va uning ikki mahallasi arab aholiga, bir mahallasi esa arab bo'lmagan aholiga tegishli bo'lib qolgan. Siyosiy va iqtisodiy afzalliklar markazga olinib barpo etilgan Bag'dodda esa mahalla va dahalar etnik kelib chiqish va kasblarga qarab shakllantirilgan. Shaharlarda bu tarzda amalga oshirilgan joylashuvlar aniq o'ziga xosligi bo'lgan shahar birliklarining rivojlanishini ta'minlagan. Qabila va etnik guruhlariga asoslangan bu tizim

keyinchalik mahallalarda ijtimoiy, kasbiy va diniy guruhlarining shakllanishi bilan davom etdi.

Yangi tashkil topgan shaharlarga qaraganda eski shaharlarda yangi tartibotlar ko'proq amalga oshirilgan Andalusiyada musulmonlarning chekka mahallalarga joylashtirilgani kuzatiladi. Hijriy IV (milodiy X) asrda yetti darvoza orqali tashqariga ochilgan poytaxt Qurtuba (Kordova) ichida yigirma bir mahalla bo'lgan bo'lsa, shahar chekkasida mahalliy musulmonlar (muwalladun) ko'pchilikni tashkil etgan mahallalar soni ham yigirma bitta edi. Ibn Havqal Sitsiliyadagi Palermo shahrida to'rt mahalla borligini, ulardan Holisa atrofini devorlar o'rab turganini, asosan slav qullar (saqoliba) yashaydigan mahalla esa dengizdan keng bir devor bilan ajratilganini qayd etgan.

Musulmonlar boshqaruvi ostiga kirgan Yaqin Sharqdagi tarixiy shaharlar katta o'zgarishsiz o'zlarining avvalgi tuzilishi va muayyan xususiyatlarini saqlab qolgan holda, yangi aholi qo'shilishi hisobiga qaytadan shakllantirilgan. Shaharlar diniy va etnik tuzilishiga ko'ra, ba'zan devorlar bilan ham ajratilgan mahallalarga bo'lingan. Masalan, Damashqning shimoli-sharqida nasroniylar, janubi-sharqida yahudiylar va g'arbiy qismida musulmon mahallalari joylashgan edi [1 : 323-324].

Islom dinining sharqiy hududlarga tarqalishi Eron va Turkiston shaharlarida ham bir qator o'zgarishlarga sabab bo'lgan. Natijada, Markaziy Osiyo shaharlarida hijriy V (milodiy XI) asrda muayyan tip shakllangan. Devor ichiga olingan Turkiston shaharlari mahallalarga bo'linib, har bir kasb egasi alohida mahallaga joylashtirilgan. Ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlar ham bu amaliyotga mos kelgan bo'lib, kasb guruhlarining alohida mahallalarda to'planishi XI-XII asr Turkiston shaharlarining ajralib turuvchi xususiyatiga aylandi. XIV asr sayyohlaridan Ibn Battuta turli etnik kelib chiqish, din va kasb vakillarining devor bilan o'ralgan mahallalarda yashaganini qayd etgani bu amaliyotning mustahkam o'rnatilganini ko'rsatadi [10 : 394]. Islomning ilk davrlarida va o'rta asrlarda mahallalarning jismoniy tuzilishining to'ldiruvchi unsuri bo'lgan quduqlar o'rnini Usmonlilar davrida mahalla favvorolari egallagan.

XI asr oxirlaridan boshlab turk qavmlarining Anadolu hududiga joylasha boshlashi bilan shahar va qasabalarda asta-sekin yangi bir joylashuv modeli yuzaga chiqdi. Dastlabki davrlarda Vizantiyadan meros bo'lib qolgan joylashuv

shakli odatda saqlab qolingani bo'lsa, vaqt o'tishi va rivojlanish bilan birga yangi tuzilma namoyon bo'ldi. Yangi aholi oqimi bilan birga Anadoluda eski Vizantiya shaharlari rivojlana boshladi, ayni paytda, yangi shaharlar ham vujudga keldi. Bu jarayon natijada Anadoluning turklashuvi bilan yakunlandi.

Musulmon shaharlarida mahallalarning shakllanishida din muhim omil bo'lganligi ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan, mahalla "bir xil masjidda ibodat qiluvchi jamoaning oilalari bilan birga joylashgan shahar qismi" tarzida ta'riflangan [4 : 69]. Ayrim G'arb tadqiqotchilari turli diniy va etnik guruhlariga ko'ra shaharning hudud va dahalarga bo'linishini musulmon shahrining eng muhim xususiyatlaridan biri deb ta'kidlaganlar. Zotaan, tarixiy shaharlar bilan bir qatorda yangi tashkil etilgan Qayravon va Vosit kabi shaharlarda ham g'ayrimusulmonlarga tegishli mahallalar mavjud edi. Shaharlarning din omiliga ko'ra qism yoki mahallalarga ajratilishi odamlarga ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy tanlovlarini o'zlari amalga oshirib, alohida yashash makonini belgilash imkonini yaratgan.

Anadoluda turli etnik kelib chiqish va dinlarga mansub kishilar shaharlarda o'zlarining maxsus mahallalarida yashaganlar. Masalan, Saljuqiylar davrida Konyaning devor ichidagi hududi turklar istiqomat qiladigan mahallalar bo'lsa, g'ayrimusulmon mahallalari devordan tashqarida joylashgan edi. Shunga qaramay, musulmonlar boshqaruvi ostida o'z mahallalarida yashagan turli din va irq vakillari istiqomat qilgan shaharlarda, ayniqsa Anadoluda, bu holat hech qachon kamsitish sifatida qabul qilinmagan. Usmonlilar davrida turli din vakillari musulmonlar ko'pchilikni tashkil qilgan mahallalarda, masalan, Livan, Istanbul va Bosniyada "qo'shni" sifatida o'zlariga joy topa olganlar. Usmonli arxiv materiallari ayrim Anadolu va eski Vizantiya shaharlarida musulmon va g'ayrimusulmon aholi bir xil mahallada yashaganini ochiqalaydi. Bundan tashqari, ayrim kasb guruhlar o'z kasblari nomi bilan atalgan mahallalarda ("Ko'mirchi", "Temirchi" kabi) yashaganlar.

Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan rejasiz shaharlashuv namunasi sifatida ko'rilgan berk ko'chalar begonalar kirishini to'sishi bilan birga, mahallada yashovchilarning daxlsizligi va xavfsizligini ta'minlashni ham osonlashtirgan. Ijtimoiy hayotning barcha ehtiyojlari qondiriladigan

har bir mahalla berk ko'chalarga ochiladigan asosiy ko'cha bilan bo'linar va bu ko'cha mustahkam inshootlar orqali yopib qo'yilishi mumkin edi. Mahallalarni devor asosida ajratish usuli musulmon arablar tomonidan Eronga ham olib kirilgan.

Shaharlarni mudofaa qilishni osonlashtirish maqsadida qurilgan devorlar bilan birga, mahalla va dahalarni bir-biridan ajratib turuvchi darvozalar ham bo'lgan va mahallalar shu darvozalarga ko'ra nomlangan. Qo'zg'olon paytida shaharning boshqa mahallalari bilan aloqani uzishni maqsad qilgan, mahallalarni shahar darvozalariga ko'ra guruhlashga asoslangan bu amaliyotning Damashq, Qohira, Toshkent va ilk Usmonli davrida Kayserida misollari uchraydi; undan oldingi davrda Anadoluda esa bunday hodisa kuzatilmaydi. Shu jihatdan, Anadoluda mahalla XIII asrdan boshlab kengroq tarqalgan shakl kasb etgan, deb aytilish mumkin.

Klassik islom shaharlarida savdo va istiqomat hududlari bir-biridan ajratilgan edi. Bu holat odatda xususiy va jamoat makonlarini bir-biridan ajratish zaruratidan kelib chiqqan deb hisoblanadi, biroq aslida bu ajralish davlatning fuqarolar kundalik hayoti bilan yaqindan shug'ullanmaganligi natijasida yuzaga kelgan; shu tariqa mahallalar muxtor tus olgan. Chunki davlatning nazorat mexanizmi asosan savdo hududlari va markazda ko'rinar, mahallalar esa o'z ishlarini o'zlari bajarardilar; bu esa mahalla aholisi orasidagi birdamlikni kuchaytirardi. Boshqa tomondan, shaharning savdo va hunar sohasida ko'rinadigan kasbiy guruhlanishlar mahallalarda to'liq aks etmagan; arxiv hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, bir mahallada bo'yoqchi, nonvoy, sartarosh, qalaychi kabi turli kasb egalaridan odamlar yashagan [1 : 324].

Mahallalar Umaviylar va Abbosiylar davrida "rais" va "shayx" deb atalgan shaxslar tomonidan boshqarilgan. Raislar hokimlar tomonidan tayinlangan, shayxlarni esa hukumat tayin qilmasa ham tan olgan. Boshqaruv bu kishilar orqali mahalladagi qabilani nazorat ostiga olib, qabilalar o'rtasida muvozanatni saqlagan. Shu tariqa hudud masalalaridan boxabar bo'linar, qahatchilik va ofat paytida zarur yordamlar ko'rsatilardi, shubhali shaxslarni aniqlash mumkin bo'lardi. O'rta asrlarda, ayniqsa poytaxt mahallalariga ayrim maxsus xizmatchilar birlashtirilgani, oshxonalar ochilgani va shunga o'xshash ijtimoiy amaliyotlar bo'lgani kuzatiladi.

380/990-yilda Bag'dod mahallalarida o'g'riliklar ko'paygach, mahalla aholisi bir

qo'mondon boshchiligida uyushib, o'g'rilarga qarshi kurasha boshlagani qayd etiladi. Suriya va Iroq shaharlarida hijriy IV–VI (milodiy X–XII) asrlarda kuzatilgan mahalliy militsiya kuchlari – "ahdas" tashkiloti o'rnini hijriy IX (milodiy XV) asr oxirlariga borib, Mamluk davlatining zaiflashuviga parallel ravishda "zuar" deb atalgan tashkilot egalladi [8 : 85-95]. Maxsus kiyimga ega bo'lgan yoshlardan tuzilgan bu tashkilot a'zolari mahalla boshqaruvida rol o'ynaganlari, ba'zan esa mahalla aholisini markaziy hokimiyatga qarshi qo'zg'atganlari ko'rinadi.

Usmonli shaharlarida mahallaning eng muhim xususiyati uning asosiy boshqaruv birligi bo'lishidir. Soliq to'lovlariga oid arxiv hujjatlariga ko'ra, mahallada soliq to'lovchi shaxslar ism-sharifi bilan yozilgan, ularning uylari qaysi mahalla chegarasida joylashgani belgilab qo'yilgan. "Mahalla ahli bir-biriga o'zaro kafildir" qabilidagi jumla ko'p uchrashishida ma'lum bo'ladiki, mahallada sodir bo'lgan voqeaning aniqlanishida va kelib chiqqan zararning qoplanishida jamoaviy javobgar hisoblangan. Mahallaga ta'rif berilganda ham ana shu ijtimoiy holat e'tiborga olingan va u umumiy chiziqlarda "a'zolari umumiy bir ibodatxonada ibodat qiladigan hamda aholisi taxminan 1000 kishidan iborat bo'lgan yashash birligi" deb tavsiflangan. 1871 yilgi Usmonli viloyatlar qonunida esa mahalladagi uylar soni inobatga olinib, u "kamida ellik xonadondan iborat yashash birligi" deb tariflangan.

Mahallaning ma'muriy tuzilma bilan bog'lanishini ta'minlagan mahalla xizmatchilarining eng muhim yordamchilari Umaviylar davridan boshlab keng tarqala boshlagan mahalla masjidlarida xizmat qiluvchi *imomlar* edi. Saljuqiylar davrida mahallaning ayonlari va oqsoqollari bilan yaxshi munosabatda bo'lishga majbur bo'lgan imomlar o'z ta'sirini saqlab qolganlar. Usmonlilar davrida XIX asrning birinchi yarmigacha musulmon mahallalarining mas'ul boshqaruvchisi imom, g'ayrimusulmon mahallalarining boshqaruvchisi esa ravvin yoki pop bo'lgan. Imom podshoh farmoni bilan tayinlanadigan, hududning mulkiy va viloyat boshlig'i bo'lgan qozining vakili sifatida ish yurituvchi mansabdor edi. Ravvin yoki pop esa bosh ravvinlik yoki patriarxlikning vakili edi. Mahallada sodir bo'lgan tug'ilish, o'lim, nikoh kabi voqealarni qayd etish imomning vazifasi bo'lgan. Mahalladagi har qanday ish uning izniga bog'liq

edi. Biror kishining mahallaga ko'chib kelishi uchun mahalla aholisidan birining va imomning kafolati shart bo'lgan. Imomning eng muhim vazifasi mahalla ahliga soliqlarni taqsimlash va yig'ish ishini yuritish edi. Bu vazifalar imomlarning nufuzini oshirardi. Biroq ularning bu vazifalarni har doim ham talab darajasida bajarganini aytish qiyinligi qayd etiladi.

Tarixshunoslikda uzoq vaqt "musulmon shahri" degan sxematik model hukm surgan edi: go'yoki musulmonlar markaziy va ustun hududlarda, g'ayrimusulmonlar esa qat'iy alohida hududlarda yashagan. Janet Abu-Lughod va André Raymond kabi olimlar bu soddalashtirilgan tasavvurni tanqid qilib, real shahar hayotida diniy guruhlar o'rtasidagi aloqalar ancha murakkab bo'lganini ta'kidlaganlar. Ya'ni, ayrim mahallalar bir konfessiya atrofida shakllangan bo'lsa-da, savdo, ijara, mulk oldi-sotdisi, xizmat ko'rsatish va sud-huquqiy aloqalar natijasida u yerda boshqa din vakillari ham yashab kelgan [5 : 155-176].

Heather J. Sharkey Yaqin Sharq tarixiga bag'ishlangan tadqiqotida XX asr boshlarigacha musulmonlar, nasroniylar va yahudiylar ko'pincha "shared worlds", ya'ni umumiy ijtimoiy makonda yashaganini ta'kidlaydi: ular bir xil tillarda so'zlashgan, bir xil bozor va ko'chalaridan foydalangan, shahar mahallalari va uy-joy maydonlarida bir-biriga yaqin yashagan. Bu qarash mahalla tizimini faqat diniy ajralish emas, balki kundalik birga yashash makoni sifatida qabul qilinganini ko'rsatadi [12 : 1-26].

Turli din vakillarining bir mahalla yoki qo'shni mahallalarda yashashi, avvalo, musulmon jamiyatlaridagi huquqiy va ijtimoiy moslashuvchanlik bilan bog'liq edi. Musulmon davlatlarda g'ayrimusulmon jamoalar ko'pincha alohida diniy-huquqiy maqomga ega bo'lgan, biroq bu ularning kundalik hayotda musulmonlardan ajralib qolganini anglatmagan. Sud hujjatlari, mulk bitimlari va vasiyatnomalar shuni ko'rsatadiki, g'ayrimusulmonlar musulmonlar yashaydigan hududlarda uy sotib olgan, ijaraga olgan yoki ularga qo'shni bo'lib yashagan. Ayniqsa, bozor, port, hunarmandchilik va savdo markazlarida bunday aralashlik kuchli bo'lgan [6 : 831-863]. Bunda mahalla doirasidagi kundalik hayotning bir qator umumiy institutlari muhim rol o'ynagan: umumiy ko'cha, suv manbai, hammom, bozor, novvoyxona, ustaxona, qarz-olish-berish tarmoqlari, xavfsizlik va yong'in kabi ofatlarga qarshi mahalla birdamligi.

Diniy farqlar saqlangan bo'lsa-da, shahar hayotining amaliy ehtiyojlari qo'shnihilikni mustahkamlagan [2 : 133-169]. Bu borada eng ko'p misollar Usmonli shaharlari tarixida ko'zga tashlanadi. Jem Behar Istanbulning XIX asrdagi Kasap Ilyas mahallasi misolida mahalla ijtimoiy tabaqa va maqom jihatidan ancha aralash bo'lganini ko'rsatadi. Bu natija shuni anglatadiki, Usmonli mahallasi doim bir xil ijtimoiy yoki diniy tarkibga ega "yopiq birlik" bo'lmagan [3 : 537-559].

Fariba Zarinebafning XVIII asr Istanbuli haqidagi tadqiqoti bundan ham aniqroq xulosa beradi: uning ko'rsatishicha, Galata, Balat va Hasköy kabi hududlarda musulmonlar an'anaviy g'ayrimusulmon mahallalariga ko'chib borgan, yahudiylar va nasroniylar esa boshqa joylarda musulmonlar bilan yonma-yon yashagan. Demak, Istanbul singari yirik musulmon shahrida diniy jamoalar o'rtasida to'liq makoniy ajralish emas, balki qisman aralash, qisman jamlangan tuzilma bo'lgan [14 : 79-85].

Heather Sharkeyning Usmonli tarixiga oid tadqiqot xulosalarida ham shu fikr qayd etiladi: ayrim joylarda musulmon, nasroniy va yahudiy oilalari bir ko'chada yashagan, boshqa joylarda esa "zimmiy" maqomida alohida tuman yoki dahalarda jamlangan. Bu holat musulmon dunyosida mahalla tizimi bo'yicha yagona universal model bo'lmaganini, aksincha, shahar iqtisodi, davlat siyosati, xavfsizlik va demografik holatga qarab turli ko'rinishlar yuzaga kelganini ko'rsatadi [13 : 64-114].

Mikell U. Kamposning Usmonlilar davridagi Quddusi bo'yicha arxiv materiallariga tayangan tadqiqoti bu masalada ayniqsa qimmatli. U Quddusni "mixed quarter", ya'ni aralash mahalla misolida tahlil qilib, umumiy darajada qaralganda integratsiyalashgan ko'ringan hududlarning o'zida ham ko'cha, burchak, binolar darajasida ma'lum jamlanishlar bo'lganini ko'rsatadi [2 : 133-169]. Kamposning xulosasi musulmon dunyosidagi mahalla tizimi uchun kengroq nazariy ahamiyatga ega bo'lib, diniy guruhlar o'rtasidagi alohidalik va qo'shnihilik bir-biriga zid holatlar emas, balki ko'pincha bir vaqtning o'zida mavjud bo'lgan ikki jarayondir. Mahalla ichida ayrim ko'chalar yoki uy massivlari ma'lum jamoaga ko'proq mansub bo'lishi mumkin, biroq buning o'zi kundalik iqtisodiy, huquqiy va madaniy aloqalarni yo'qqa chiqarmaydi.

Markaziy Osiyoda, xususan Buxoroda mahalla tizimi juda rivojlangan bo'lib, u ham hududiy emas, ham diniy-ma'naviy va maishiy birlik sifatida ham faoliyat yuritgan. Shu bilan birga, Buxoro tarixida yahudiy jamoasining "Yahudiy mahallasi" mavjud bo'lgani ma'lum. Buxoro yahudiylari haqidagi tadqiqotlar shahardagi yahudiy mahallasi zich joylashgan, ayrim ko'chalar devor bilan chegaralangan hudud bo'lganini qayd etadi. Bu Markaziy Osiyoda ham konfessional hududiy birlik shakllanganligini ko'rsatadi [11 : 258]. Lekin bu dalilni "to'liq ajralish" sifatida talqin qilish ham ehtiyotkorlikni talab qiladi. Buxoro yahudiylari shahar iqtisodiy hayotida faol qatnashgan, savdo va hunarmandchilik tarmoqlari orqali musulmon aholi bilan doimiy aloqada bo'lgan. Umuman, Markaziy Osiyo mahallasi modern davrga qadar diniy birlikni ham, qo'shnichilikni ham birga olib borgan murakkab institut bo'lib qolgan. Zamonaviy siyosiy-adabiy manbalarda O'zbekiston va Markaziy Osiyoda mahalla "asosiy ijtimoiy tayanch" sifatida tilga olinadi; bu uning jamoalararo vositachilik funksiyasini ham ifodalaydi. Shu nuqtada bir muhim metodologik xulosani aytish kerak: Markaziy Osiyoda "mahalla" termini tarixan bugungi O'zbekistondagi ma'nosiga juda yaqin bo'lsa-da, Usmonli yoki Arab shaharlaridagi "mahalle" yoki "hitat" bilan to'liq bir xil emas. Ammo ularning umumiy jihati shundaki, barchasi mahalliy darajadagi qo'shnichilik, ijtimoiy nazorat va kundalik birga yashashni tashkil etgan.

XULOSA

Musulmon dunyosida mahalla tizimi doirasida turli din vakillarining birgalikda yashashi tarixiy haqiqat hisoblanadi. Mahalla tizimi ko'p hollarda farqlarni saqlagan holda birga yashash imkonini bergan. Bu, ayniqsa, shahar hayotining amaliy sohalarida yaqqol ko'rinadi. Musulmon dunyosidagi mahalla tizimi tarixan turli din vakillarining bir hududda yoki tutash hududlarda yashashi uchun muhim ijtimoiy maydon bo'lib xizmat qilgan. Usmonli Istanbuli, Quddus, Damashq va Markaziy Osiyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, mahalla diniy identitetni saqlashga ham, kundalik qo'shnichilik va iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ham xizmat qilgan. Shu sababli mahalla tizimi nafaqat musulmon ichki jamoaviy tuzilmasi, balki ko'p konfessiyali shahar jamiyatining ham tayanch institutlaridan biri sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ali Murat Yel, Mustafa Sabri Küçükaşci. Mahalle // *Islan Ansiklopedisi*, 27 cilt. – S. 323-324.
2. Campos MU. Mapping Urban "Mixing" and Intercommunal Relations in Late Ottoman Jerusalem: A Neighborhood Study. *Comparative Studies in Society and History*, 63 (1). – UK: Cambridge University Press, 2021. – P. 133-169.
3. Behar C. Neighborhood nuptials: islamic personal law and local customs—marriage records in a mahalle of traditional Istanbul (1864–1907) // *International Journal of Middle East Studies*. 2004; 36 (4). – P. 537-559.
4. Ergenç Ö. Osmanlı şehrindeki "mahalle" nin işlev ve nitelikleri üzerine // *Osmanlı Araştırmaları*, 1984, volume 4, issue 4. – S. 69.
5. Janet L. Abu-Lughod. The Islamic City--Historic Myth, Islamic Essence, and Contemporary Relevance // *International Journal of Middle East Studies*, Vol. 19, No. 2 (May, 1987). Published By: Cambridge University Press. – P. 155-176.
6. Hacker JR. Jews in the Ottoman Empire (1580–1839). In: Karp J, Sutcliffe A, eds. *The Cambridge History of Judaism. The Cambridge History of Judaism*. – UK: Cambridge University Press, 2017. – P. 831-863.
7. Ismoil b. Umar b. Kasir. *Al-Bidoya va-n-nihoya*. 11-jild. – Bayrut: 1966. – S. 338.
8. Lapidus I. M. *Muslim Cities in the Later Middle Ages*. – UK: Cambridge University Press, 1984. – P. 85-95.
9. Muhammed b. Jarir Tabariy. *Tarihu-r-rusul va-l-muluk*. IV jild. – Bayrut: Daru Suvaydan, 1960. – S. 70.
10. Muhammed b. Abdullah b. Battuta. *Tuhfatu-n-nuzzar fi g'aroibi-l-amshar va 'ajoibi-l-asfar (Rihlatu Ibn Battuta)*, I jild. – Bayrut: 1985. – B. 394.
11. Rachel Goldenweiser. The Bukharian Jews Through the Lenses of the 19th Century Russian Photographers // *Iran and the Caucasus (Yerevan)*, Online Publication Date: 01 Jan 2005. – P. 258.
12. Sharkey HJ. Muslims, Christians, and Jews in the Middle East. In: *A History of Muslims, Christians, and Jews in the Middle East. The Contemporary Middle East*. – UK: Cambridge University Press, 2017. – P. 1-26.
13. Sharkey HJ. The Ottoman Experience. In: *A History of Muslims, Christians, and Jews in the Middle East. The Contemporary Middle East*. – UK: Cambridge University Press, 2017. – P. 64-114.
14. Zarinbaf F. Intercommunal Life in Istanbul During the Eighteenth Century. *Review of Middle East Studies*. 2012;46 (1). – P. 79-85.